

## DAVLAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISH YURITISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING ZARURIY SHARTLARI

**Jumayeva Zamira Bustonovna**

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11623948>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va uning afzalliklari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Boshqaruvda raqamli texnologiyalarni qo'llash va ularning samaradorligini baholash imkoniyatlari nazariy jihatidan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, boshqaruv, boshqaruv faoliyati, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, raqobat, xarajat.

### NECESSARY CONDITIONS FOR DIGITALIZATION OF THE WORKING SYSTEM IN INCREASING THE EFFICIENCY OF STATE ORGANIZATIONS

**Abstract.** This article explores the possibilities of using digital technologies and its advantages in improving the efficiency of management activities from a scientific point of view. The application of digital technologies in management and the possibilities of evaluating their effectiveness are explained theoretically.

**Key words:** digital technology, management, management activity, efficiency, economic efficiency, competition, cost.

### НЕОБХОДИМЫЕ УСЛОВИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ РАБОТАЮЩЕЙ СИСТЕМЫ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

**Аннотация.** В данной статье с научной точки зрения исследуются возможности использования цифровых технологий и их преимущества в повышении эффективности управленческой деятельности. Теоретически объяснено применение цифровых технологий в управлении и возможности оценки их эффективности.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, менеджмент, управленческая деятельность, эффективность, экономическая эффективность, конкуренция, стоимость.

Zamonaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiribgina qolmay, balki uning shaffofligi, sifatini oshirish va iqtisodiy jihatdan tejamkorligiga ham imkoniyat yaratishi mumkin.

Davlat xizmatlarini aholi va tadbirkorlar uchun yanada qulay qilish hamda davlat tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati ko'p marotaba davlat rahbari va boshqa siyosiy-iqtisodiy boshqaruv rahbarliklari doirasida muhokama qilindi.

Shu kunga qadar "raqamli transformatsiya" yoki "raqamlashtirish" tushunchalarining aniq ta'rifi shakllanmagan. Keng ma'noda raqamli transformatsiya jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq o'zgarishlarni anglatadi. Hozirgi kunda raqamli transformatsiya iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida, davlat yoki xususiy sektor korxonalarini faoliyati ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash yoki ko'lamini kengaytirish imkoninim beruvchi asosiy tendensiya sifatida o'rganiladi. Raqamli transformatsiya strategiyalari ko'pincha

mahsulotlarni, jarayonlarni o'zgartirishga, innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida faoliyatni (boshqaruvni) tashkil etishga, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan[2].

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun uzoq muddatga mo'ljallangan davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ham hozirda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqilgan va uni amalga oshirish jarayoni jadal rivojlanmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning murojaatnomasi parlament va jamiyatimizning barcha qatlamlariga mansub bo'lgan fuqarolarga nisbatan murojaat sifatida qabul qilinib, unda keltirib o'tilgan mamlakatimizning barcha sohalariga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli va samarali bajarish jamiyatimiz barcha qatlamlaridan bir butun bo'lib harakat qilishni taqozo etadi. O'tgan 2020 yilning "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi O'zbekistonning rivojlanish tarixidagi ilk inqilobiy davr boshlanishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Raqamli iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyotdan farqi nimadalgiga izoh beraylik.

Masalan, xaridorga biror-bir mahsulot yoki xizmat turi kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisodiyot bo'ladi. Internet tarmog'idagi biror-bir elektron savdo maydonchasidan yoki telegramdagi biror savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olishga – raqamli iqtisodiyot deyiladi.

Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lovlar yordamida kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi hamda hisobotini topshiramiz, kartadan-kartaga pul o'tkazamiz, uyimizga yoki ishxonamizga taom buyurtma qilamiz va hokazo. Keyingi yillarda internetga kirish va undan foydalanish bo'yicha shahar va qishloqlar o'rtasidagi tafovut yo'qolib bormoqda. Mobil internet tobora rivojlanmoqda[7].

Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash uchun davlat boshqaruvi sifatining turli tomonlarini (davlat aralashuvi asosligi, natijadorlik va samaradorligi) ko'rib chiqish, shuningdek, bir tomondan davlat boshqaruvi ehtiyojlarini tahlil qilish va bunday ehtiyojlarni qondirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarishning va nazorat qilishning dasturli-apparatli komplekslarini qo'llash inson omili ta'sirida yuzaga keladigan xatolarni oldini olishga olib keladi. Buyumlar sanoat internetining rivojlanishi. neyrotarmoqli texnologiyalarga asoslangan sun'iy intellektning qo'llanilishi oqibatida muammoli vaziyatlar yuzaga kelgan sharoitda ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish borasidagi qarorlarni tezkorlik bilan qabul qila oladigan»aqilli ishlab chiqarish" ni yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy paradigmasi (ko'rinishi) jihozlarni turli xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga moslashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan ishchi xodimlarning sonini qisqartirish, moslashuvchan texnologiyalarni va robotlashtirilgan komplekslarni joriy etish asosida yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga o'tish imkoniyatini aks ettiradi.

Raqamli boshqaruvga asoslangan jihozlar ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori aniqlikda kuzatish va olingan ma'lumotlar asosida mustaqil qaror qabul qilishga imkon yaratadi. Zamonaviy raqamli ishlab chiqarish tizimlarining bir nechta darajalari ajratiladi. Jismoniy darajada, sexlarida jihozlarga datchiklar, sensorlar, tarmoqlar joylashtiriladi.

Jihozlarni nazorat qilish va boshqarish darajasida dasturlashtirilgan mantiqiy nazoratchilar (PLC – Programmable logic controller) o'rnatiladi va ular yordamida axborotlar yig'iladi.

Yuqori boshqaruv darajasini ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarining serverlarida joylashadigan korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimlarini (ERP – Enterprise Resource Planning) tashkil etadi.

Raqamli ishlab chiqarishni tashkil etish istemolchilarning talabiga mos keladigan mahsulotni loyihalashtirishga buyurtma berish va raqamli model asosida tayyor mahsulotni ishlab chiqarish orasidagi muddatni qisqartirish imkonini yaratadi. Raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash sanoat robotlari 3D printlar yordamida murakkab ko'rinishga ega bo'lgan mahsulotlarni yaratishni ta'minlaydi.

Raqamli ishlab chiqarish konsepsiyasining yutug'i shundaki, mahsulotni virtual muxitda modellashtirish bosqichidayoq xatoliklarni aniqlash, bartaraf etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga erishiladi. Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish korxonalar yoki tashkilotning moliyaviy operatsiyalar va moddiy va nomoddiy aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish sohasidagi faoliyatini yaxshilaydi, shuningdek, yakunlangan tranzaksiyalarni (tashqi va ichki) kuzatish va qayd etish orqali boshqaruv tizimini o'zgartiradi[9].

Shu bilan birga, davlat boshqaruvida ma'lum raqamli texnologiyalarni joriy etishning maqsadga muvofiqligi mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish taklif etiladi:

➤ samaradorlik – bu yoki boshqa raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ko'rib chiqilayotgan yo'nalishda davlat boshqaruvi sifatini oshirish ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi kerak, shu sababli davlat boshqaruvi samaradorligi va uning o'ziga xos parametrlarini oshirishni ta'minlashi kerak (masalan, texnologiyani joriy etish muayyan davlat funksiyalarini bajarish muddatlarini qisqartirishga olib kelishi mumkin. Yangi jamoat tovarlari paydo bo'lishi va boshqalar);

➤ iqtisodiy samaradorlik – bittasini joriy etish davlat boshqaruvidagi boshqa raqamli texnologiyalar budjet xarajatlarini (xech bo'lmaganda asbobskunalarni saqlash xarajatlari) yoki fuqarolar va tashkilotlarning xarajatlarini kamida o'rta muddatli istiqbolda kamaytirishga yordam berishi kerak;

➤ tashqi raqobatbardoshlik – tashqi tomonlar orqali belgilangan shartlar va o'lchamlar mavjudligi, standartlar, kutilayotgan natijalar (masalan, xususiy sektorning rivojlanishi darajasi va davlat xizmatlarini taqdim etishning sifat ko'rsatkichlariga nisbatan fuqarolar va ularning xususiy kompaniyalar (nodavlat tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish) tajribasi asosida)[8].

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, umumlashtirsak, mamlakatimizdagi davlat boshqaruv sohasida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin:

-boshqaruv jarayoni xarajatlarini kamaytirish;

-boshqaruv qarorlarini tezkor va sifatli qabul qilishga erishish;  
-jamoatchilikka davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffof ekanligini kuzatib borish imkoniyatini berish;  
-davlat xokimiyati organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat samaradorligini oshirish;  
-raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali yashirin iqtisodiyotni keskin kamaytirish mumkin;  
-davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish to'g'risidagi qaror butun korxonada faoliyatiga ta'sir qiladi va bunda bilan yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish kerak. Faqat istiqbolli texnologiyalarni, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini puxta rejalashtirish va har tomonlama o'rganish bilangina istalgan samarani olish mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida korxonada boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni yaratish mumkin. Raqamlashtirish davrida sanoat korxonasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tashkilot rahbariga ham menejment, ham ishlab chiqarish texnologiyalari, ham IT texnologiyalari sohasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga bo'lgan talablarni qo'yadi.

#### REFERENCES

1. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF FUTURE TEACHERS. *Modern Science and Research*, 3(5), 386-392.
2. Alimova, S. (2024). THE MAJOR FACTORS INFLUENCING ON CAREER DEVELOPMENT AND ON ADVANCE OF A CAREER LADDER. *Modern Science and Research*, 3(5), 417-425.
3. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
4. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
5. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
6. Shadiyev, A. K. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 87-93.
7. Шадиев, А. Х. (2020). Факторы, влияющие на развитие экотуризма. *Достижения науки и образования*, 5 (59), 31-32.
8. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz), 13(13).

9. Davronov, I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4), 40-42.
10. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.
11. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.
12. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
13. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 134-139.
14. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
15. Бобоев, А. Ч., & Базарова, М. С. (2019). Хорижий инвестицияларнинг жозибadorлигини ошириш. *Интернаука*, (22-3), 88-90.
16. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.
17. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 16-18.
18. Bazarova, M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 563-567.
19. Жумаева, З. К. (2023). ПУТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 530-533.
20. Jumayeva, Z. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE INDUSTRIES AS A FACTOR OF GROWTH OF NATIONAL ECONOMY: REVIEW OF FOREIGN EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 241-246.
21. Jumayeva, Z. Q. (2017). THEORIES OF ENSURE STABILITY IN LABOUR MARKETS OF DEVELOPED COUNTRIES. *Инновационное развитие*, (4), 64-66.
22. Nafisa, R. (2024). Organization of Management in Small Business and Private Entrepreneurship. *Miasto Przyszłości*, 48, 503-509.
23. Junayduloevich, A. A., Bakhriddinova, A. N., & Olimovna, R. N. Business and Product Delivery in the Context of Covid-19. *JournalNX*, 1305-1307.
24. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).



25. Таирова, М. М., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Стратегия развития управления цепями поставок в обрабатывающей промышленности. *International scientific review*, (LXXI), 56-58.
26. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
27. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
28. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.
29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 608-615.
30. Ikromov, E. (2024). A METHODOICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(5), 180-188.
31. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(5), 171-179.
32. Ibodulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USLUBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.
33. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
34. Zamira, J. (2024). ENSURING ECONOMIC SECURITY IN THE BANKING SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 343-348.
35. Jumayeva, Z. (2024). IQTISODIYOT RIVOJIDA INNOVATSIYANING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(5), 504-511.
36. Jumayeva, Z. (2024). MOLYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 3(5), 512-518.
37. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
38. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONANING MOLYAVIY BAQARORLIGI: OMILLARI VA KO 'RSATKICHALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 140-146.
39. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
40. To'rayevna, S. N. (2023). DEMOKRATIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
41. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.

42. Sodiqova, N. (2024). TECHNOLOGY DISCOURSE AND THE POLITICAL ECONOMY OF NEW MEDIA. *Modern Science and Research*, 3(2), 376-384.
43. Akbarovna, N. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SOHALARDA VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHIDA MAMLAKATNING IQTISODIY SALOHIYATI.
44. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT SOLIQ QO ‘MITASINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH STRATEGIYASI.
45. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF MARKETING RESEARCH. *Modern Science and Research*, 3(5), 306-312.
46. Akbarovna, N. N. (2024). DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI–MA’MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 371-377.
47. Hakimovich, T. M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI.
48. Toshov, M. (2024). MODERN MANAGEMENT AND DIGITALIZATION. *Modern Science and Research*, 3(5), 728-734.
49. Hakimovich, T. M. (2024). THE SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS AS A TOOL IMPROVEMENTS MANAGEMENT OF THE ORGANIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 353-358.
50. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470-476.
51. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
52. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477-482.
53. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
54. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 620-627.
55. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali| journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.